

**“SURXONDARYO VILOYATIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI BILAN
BOG’LIQ IQTISODIY NIZOLAR VA SUD AMALIYOTI TAHLILI”**

Normamat Ramazonovich Mallayev

Termiz davlat universiteti Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Boboraxmatova Adiba Rustamovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

boboraxmatovaa@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishning huquqiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, iqtisodiy sudlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq nizolarni hal etishdagi o‘rni, ularning vakolat doirasi, shartnomaviy, korporativ, investitsiyaviy, bankrotlik va yer munosabatlariga oid nizolarni ko‘rib chiqish amaliyoti yoritilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Fuqarolik kodeksi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmuni huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, Surxondaryo viloyati iqtisodiy sudlari faoliyatiga oid statistik ma’lumotlar asosida tadbirkorlik nizolarining asosiy turlari, sud amaliyotidagi muammolar va ularning kelib chiqish sabablari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik subyekti, iqtisodiy sud, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy nizolar, shartnomaviy nizolar, korporativ nizolar, investitsiyaviy nizolar, bankrotlik, mediatsiya, advokat yordami, sud-huquq islohotlari, huquqiy kafolatlar, shartnomaviy intizom, iqtisodiy protsess, huquqiy himoya mexanizmi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu

sababli, tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning erkin faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlarni yaratish zamonaviy huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligi nafaqat iqtisodiy omillarga, balki huquqiy himoya darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining mavjudligi va ularning samarali ishlashi mamlakatning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy barqarorligi hamda ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari Konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan bo‘lib, unda mulk daxlsizligi, iqtisodiy faoliyat erkinligi, raqobatni qo‘llab-quvvatlash va davlat tomonidan tadbirkorlikni himoya qilish kabi fundamental prinsiplar o‘z ifodasini topgan. Ushbu prinsiplar “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali rivojlantirilib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi yaxlit huquqiy tizimni tashkil etadi. Mazkur hujjatlar orqali tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari hamda ularni himoya qilish mexanizmlari aniq belgilab berilgan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvini cheklash hamda ularning huquqiy himoyasini kuchaytirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident farmonlari va qarorlari orqali tekshiruvlar tizimini tartibga solish, ularni raqamlashtirish, shaffofligini ta‘minlash hamda nazorat organlari faoliyatini aniq chegaralashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi. Bu esa tadbirkorlar faoliyatiga ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va ularning erkin rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Mazkur islohotlar doirasida tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining institutsional asoslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Xususan, davlat organlari faoliyatida “tadbirkorlik subyekti foydasiga talqin qilish” prinsipi, ortiqcha ma’muriy yuklamalarni qisqartirish, nazorat funksiyalarini optimallashtirish hamda ularni aniq chegaralashga qaratilgan yangi yondashuvlar joriy etildi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining davlat bilan o‘zaro munosabatlarida muvozanatni ta’minlash, ularning huquq va manfaatlarini ustuvor qo‘yish hamda huquqiy ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, avvalo, sud-huquq tizimi orqali amalga oshiriladi. Sudlar tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini tiklash, noqonuniy qarorlarni bekor qilish hamda yetkazilgan zararni undirishda asosiy vakolatli organ hisoblanadi. Shu bilan birga, nizolarni sudgacha hal etishning muqobil usullari, jumladan mediatsiya va arbitraj mexanizmlarining rivojlanishi ham tadbirkorlar uchun qo‘shimcha huquqiy kafolatlarni yaratmoqda. Bu esa nizolarni tezkor, kam xarajatli va samarali hal etish imkonini beradi.

“Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish - ustuvor vazifamizdir”¹, - deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida. Biroq har qanday tadbirkor o‘z faoliyati jarayonida turli to‘siq va muammolarga duch kelishi tabiiy holatdir. Ana shunday vaziyatlarda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda sudlarning o‘rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlarning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinadigan, muammolariga tezkor va samarali yechim topiladigan davlat jadal rivojlanadi, xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va mavqei yuksaladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali ishonchli himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotning yangi bosqichda taraqqiy etishida muhim

¹ Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir <https://president.uz/oz/lists/view/6561>

omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, odil sudlovni samarali tashkil etish va sudlar mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu islohotlar tadbirkorlik faoliyatining yanada kengayishi va rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Tadbirkorlar buzilgan huquq va manfaatlarini tiklanishini so‘rab fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma‘muriy sudlarga murojaat qilish huquqiga ega. Har bir sud tizimi o‘z vakolatlari doirasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etadi.

B.Laxtarnik nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy nizolarni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1) shartnomaviy nizolar, shartnoma predmeti doirasidan kelib chiqqan huquq va majburiyatlar bo‘yicha nizolar shartnomalar. Iqtisodiy nizolarning eng katta guruhi ham ushbu nizolardan iboratdir;

2) shartnomadan tashqari, bitim mazmunidan tashqari qo‘shimcha majburiyatdan kelib chiqqan va shartnoma mazmuniga daxl qilmaydigan huquq va majburiyatlar doirasidagi nizolar . O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritadigan tadbirkorlik sub‘yektlari o‘rtasida iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda har doim ham iqtisodiy sudga murojaat qilib bo‘lmaydi. Chunki shunday fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy va korporativ nizolar borki, fuqarolik sudida ko‘rib chiqiladi.

Iqtisodiy sudlar O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqishga ixtisoslashgan sud organlari hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi iqtisodiyot sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishdan iborat. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, iqtisodiy sudlarga, avvalo, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasida yuzaga keladigan fuqaroviy, ma‘muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar taalluqlidir. Bunday nizolar, odatda, tadbirkorlik subyektlari

o'rtasida tuzilgan shartnomalar, jumladan mahsulot yetkazib berish, oldi-sotdi, pudrat, xizmat ko'rsatish va kredit shartnomalaridan kelib chiqadi.

Shuningdek, iqtisodiy sudlar yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash bilan bog'liq ishlarni ham ko'rib chiqadi. Bunday ishlar nizo mavjud bo'lmagan holatlarda ko'riladi va ular orqali, masalan, mulkka egalik qilish, tashkilotning ro'yxatdan o'tganligi yoki muayyan vaqt davomida mulkdan foydalanish kabi faktlar tasdiqlanadi. Iqtisodiy sudlarning muhim vakolatlaridan yana biri bankrotlikka oid ishlarni ko'rib chiqishdir. Qonunchilikka muvofiq, agar qarzdor uch oy davomida o'z majburiyatlarini bajarmasa va kreditorlar talablarini qondira olmasa, u bankrot deb e'tirof etilishi mumkin. Bunday ishlar ham aynan iqtisodiy sudlar tomonidan hal etiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy sudlar hakamlik sudlari bilan bog'liq nizolarni ham ko'rib chiqadi. Jumladan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish, ularni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish yoki hakamlik jarayonida da'voni ta'minlash choralarini qo'llash bilan bog'liq ishlar iqtisodiy sud vakolatiga kiradi. Alohida toifa sifatida korporativ nizolar ham iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday nizolar yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish yoki tugatish, ustav kapitalidagi ulushlar, aksiyalar bilan bog'liq masalalar, shuningdek yuridik shaxs boshqaruv organlari qarorlari ustidan shikoyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Korporativ nizolarning o'ziga xos jihati shundaki, ular odatda bitta xo'jalik yurituvchi subyekt doirasida, uning ishtirokchilari va boshqaruv organlari o'rtasida yuzaga keladi².

Shuningdek, investitsiyaviy nizolar ham iqtisodiy sudlar vakolatiga kiradi. Bu turdagi nizolar investitsiya shartnomalarini tuzish, o'zgartirish, bekor qilish yoki ularning bajarilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, investorlarning soliq, bojxona va boshqa majburiyatlarni bajarishi bilan bog'liq nizolar ham shu toifaga kiradi. Raqobatga oid nizolar ham iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday nizolar yuridik shaxslar, tadbirkorlar hamda monopoliyaga qarshi organlar

² Iqtisodiy sudlarda qanday ishlar ko'riladi? <https://namangan.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=47984>

o'rtasida tovar va moliya bozorlarida yuzaga keladi. Iqtisodiy sudlar, shuningdek, chet davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish va ularni ijro etish bilan bog'liq ishlarni ham ko'rib chiqadi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning huquqiy ta'minotida muhim ahamiyatga ega³.

Amaliyotda iqtisodiy sudlarda ko'riladigan ishlarning asosiy qismini aynan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi shartnomaviy nizolar tashkil etadi. Bu esa iqtisodiy munosabatlarning asosi aynan shartnomalar ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bir da'vo arizasida bir nechta talablar birlashtirilishi mumkin. Agar ushbu talablarning bir qismi iqtisodiy sudga, boshqasi esa fuqarolik sudiga taalluqli bo'lsa, bunday ishlar fuqarolik sudlarida ko'rib chiqiladi. Aks holda, noto'g'ri yurisdiksiya asosida berilgan ariza iqtisodiy sud tomonidan qaytariladi.

Ma'lumki, mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir insonning ajralmas huquqi sanaladi. Ushbu huquq Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasida⁴ hamda O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Faqatgina erkin va mustaqil sud organigina fuqarolarning ishlarini adolatli, ochiq va xolis ko'rib chiqish orqali buzilgan huquqlarni tiklashga xizmat qiladi hamda jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq tizimini liberallashtirish, demokratik asosda rivojlantirish, sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun muhim poydevor yaratdi⁵. Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llangan navbatdagi Murojaatnomada qayd etilganidek, so'nggi to'rt yil davomida

³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodekisi

⁴Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi <https://lex.uz/docs/-7338189>

⁵ SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI STRATEGIK ISLOHOTLAR INSON MANFAATLARI UCHUN XIZMAT QILMOQDA <https://strategy.uz/index.php?news=1442&lang=uz>

sud-huquq tizimini isloh qilish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Ushbu yo‘nalishda ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida 40 dan ortiq qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish yo‘lida muhim strategik choralar ko‘rildi. Jumladan, investitsiya nizolari hamda raqobatga oid ishlarni ko‘rib chiqish vakolati faqat iqtisodiy sudlarga berildi. Prokuratura organlarining barcha iqtisodiy sud majlislarida qatnashish huquqi bekor qilinib, ular faqat qonunda nazarda tutilgan holatlarda yoki o‘z da‘volari asosida ko‘rib chiqilayotgan ishlar doirasida ishtirok etadigan tartib joriy etildi. Bundan tashqari, sud jarayonlarida nazorat instansiyasi bekor qilinib, ortiqcha sud bosqichlari qisqartirildi. Natijada “Bir sud – bir instansiya” prinsipi amaliyotga tatbiq etildi. Endilikda tumanlararo sudlar qarorlari viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiyada qabul qilgan qarorlari esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay‘atlari tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqilmoqda.

2026-yil 16-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030”⁶ strategiyasi mamlakat taraqqiyotining barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan muhim dasturiy hujjat bo‘lib, unda sud-huquq tizimini isloh qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Strategiyada qonun ustuvorligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda sud tizimini zamonaviy va ochiq mexanizmlar asosida takomillashtirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur islohotlar, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni tezkor, adolatli va samarali hal etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, sud jarayonlarini raqamlashtirish, protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish,

⁶ “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy

shuningdek nizolarni kelishtirish (mediatsiya) asosida hal etish mexanizmlarini kengaytirish tadbirkorlar uchun muhim huquqiy kafolatlarni yaratadi⁷.

Hududiy kesimda qaralganda, Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga kelayotgan nizolarni sud amaliyoti asosida tahlil qilish ushbu islohotlarning amaliy natijalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiy va ma'muriy sudlar faoliyatida nizolarni hal etishning samaradorligi, taraflar huquqlarining himoya qilinishi va sud qarorlarining ijrosi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Avvalo, statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyatida iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar soni yillar davomida sezilarli o'zgarib borgan. Jumladan, 2021-yilda 8 692 ta ish ko'rilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 16 325 taga yetgan. 2023-yilda esa biroz kamayib 15 620 tani tashkil etgan, biroq 2024-yilda keskin o'sish kuzatilib, ishlar soni 39 307 taga yetgan. 2025-yilning birinchi yarmida esa 24 061 ta ish ko'rilgan⁸.

Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, hududda iqtisodiy munosabatlar kengayib borayotgani bilan birga, nizolar soni ham ortmoqda. Ayniqsa 2024-yildagi keskin o'sish iqtisodiy faoliyatning jadallashuvi yoki nizolarni sud orqali hal etish mexanizmlarining faollashganidan dalolat beradi. Sudlar tomonidan ko'rilgan ishlarining natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2025-yil birinchi yarmida Surxondaryo viloyatida ko'rilgan 24 061 ta ishning 94 foizi ko'rib tamomlangan. Shundan 22 397 tasi qanoatlantirilgan bo'lib, bu 93 foizdan ortiq natijani tashkil etadi. Rad etilgan ishlar esa 671 tani (taxminan 2,8%) tashkil etgan. Bu holat sud amaliyotida da'volarning asosli kiritilayotgani yoki sudlar tomonidan dalillar chuqur o'rganilib, ko'proq qanoatlantirishga moyillik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan

⁷Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan uatuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida Ozbekiston Respublikasi Prezidenti 21-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/-8050769>

⁸Iqtisodiy sudlar tomonidan birinchi instantsiyada ko'rilgan ishlar yuzasidan statistik ma'lumot <https://stat.sud.uz/assets/uploads/economical/pdf/eco-2025-6.pdf>

birga, rad etilgan ishlarning kamligi tadbirkorlar tomonidan sudga murojaat qilishdan oldin huquqiy asoslar yetarli darajada shakllantirilayotganini anglatadi.

Iqtisodiy sudlarda ko‘riladigan ishlarning turlari ham muhim ahamiyatga ega. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil birinchi yarmida eng ko‘p ishlar bank hisobvaraqlari operatsiyalarini to‘xtatib turish bilan bog‘liq bo‘lib, ular umumiy ishlarning 68,3 foizini tashkil etgan. Bu esa iqtisodiy sudlar faoliyatida moliyaviy intizom va bank operatsiyalariga oid nizolar ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mahsulot yetkazib berish shartnomalari (5,4%), kommunal xizmatlar (3,3%), kredit shartnomalari (2,1%) va bankrotlikka oid ishlar (2,3%) ham sezilarli ulushni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar hududda tadbirkorlik faoliyati asosan shartnomaviy munosabatlarga asoslanganini va aynan shu sohada nizolar ko‘proq yuzaga kelayotganini anglatadi. Yer bilan bog‘liq nizolar ham alohida e‘tiborga loyiq. 2025-yil birinchi yarmida Surxondaryo viloyatida 840 ta yerga oid ish ko‘rilgan bo‘lib, ularning 603 tasi qanoatlantirilgan. Bu esa yer munosabatlari tadbirkorlik faoliyatida muhim o‘rin tutishini va ushbu sohada nizolar hali ham dolzarbligini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi.

Sud ishlarini ko‘rib chiqish muddatlari ham muhim indikator hisoblanadi. Statistika ko‘ra, Surxondaryo viloyatida ishlarning 83,6 foizi 15 kun ichida ko‘rib chiqilgan, 11,3 foizi esa 1 oygacha bo‘lgan muddatda hal etilgan. Bu esa sud tizimida tezkorlik va samaradorlik darajasi yuqori ekanligini bildiradi⁹. Shuningdek, ishlarning katta qismi bir yoki ikki sud majlisida hal etilmoqda. Bu esa sud jarayonlarining ortiqcha cho‘zilmasdan, qisqa muddatlarda yakunlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat tadbirkorlar uchun muhim bo‘lib, ularning vaqt va moliyaviy resurslarini tejashga xizmat qiladi. Biroq, ayrim muammolar ham mavjud masalan, ayrim ishlarning 3 oydan ortiq muddatda ko‘rilishi yoki ko‘rmasdan qoldirilgan ishlar mavjudligi sud tizimida hali ham ayrim tashkiliy yoki protsessual muammolar

⁹Iqtisodiy sudlar tomonidan birinchi instantsiyada ko‘rilgan ishlar yuzasidan statistik ma’lumot
<https://stat.sud.uz/assets/uploads/economical/pdf/eco-2025-6.pdf>

borligini ko'rsatadi. Shuningdek, bank operatsiyalari bilan bog'liq ishlarning haddan tashqari ko'pligi iqtisodiy munosabatlarda moliyaviy intizom yetarli darajada shakllanmaganini anglatadi.

2025-yilning 1-yanvaridan 30-iyuniga qadar Respublika miqyosida birinchi instansiya iqtisodiy sudlarida jami 384 842 ta iqtisodiy ish ko'rib chiqilgani mamlakatda iqtisodiy-huquqiy munosabatlar ko'lami tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur statistik ma'lumotlar nafaqat iqtisodiy sudlar faoliyati samaradorligini, balki tadbirkorlik subyektlari, davlat organlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning amaliy holatini ham aks ettiradi. Ushbu statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Fuqarolik kodeksi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Raqobat to'g'risida"gi Qonun, "Korxonalarining bankrotligi to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiy sudlarda ko'rilgan ishlarning asosiy qismini banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga oid ishlar tashkil etgan bo'lib, ular jami ishlarning 68,3 foizini yoki 305 665 tani tashkil etadi. Mazkur turdagi ishlarning ko'pligi iqtisodiy munosabatlarda moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat kuchayganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunchilikka muvofiq, soliq qarzdorligi yoki boshqa majburiy to'lovlarni undirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar vaqtincha cheklanishi mumkin. Ushbu choralar davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa-da, Konstitutsiyada belgilangan tadbirkorlik erkinligi prinsipiga zid bo'lmasligi kerak. Chunki Konstitutsiyaning iqtisodiy faoliyat erkinligiga oid normalariga ko'ra, har bir shaxs qonunda taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Shu sababli hisobvaraqlarni bloklash bilan bog'liq choralarni qo'llashda mutanosiblik va qonuniylik tamoyillariga qat'iy rioya qilinishi

muhimdir. Mahsulot yetkazib berish shartnomalariga oid 13 155 ta ish Fuqarolik kodeksining shartnoma majburiyatlariga oid normalari amaliyotda eng ko‘p qo‘llanilayotgan institutlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Fuqarolik kodeksiga ko‘ra, taraflar shartnomani lozim darajada bajarishi shart. Yetkazib beruvchi mahsulotni sifatli va o‘z vaqtida topshirishi, xaridor esa to‘lov majburiyatlarini bajarishi lozim. Statistik ma‘lumotlar ushbu majburiyatlarning buzilishi iqtisodiy nizolarning asosiy sabablaridan biri ekanini ko‘rsatmoqda. Bu esa tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida shartnomaviy intizomni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish shartnomalariga oid 10 702 ta ish mavjudligi elektr energiyasi, gaz va suv ta‘minoti bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarda muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonun hamda kommunal xizmatlar sohasidagi normativ hujjatlarga ko‘ra, iste‘molchilar kommunal xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirishi shart. Aks holda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar iqtisodiy sudlarga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi. Mazkur nizolarning ko‘pligi ayrim tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy intizom yetarli emasligini ko‘rsatadi. Kredit shartnomalariga oid 7 921 ta ish bank-moliya munosabatlarining iqtisodiy sudlar amaliyotida muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Fuqarolik kodeksi hamda bank qonunchiligiga ko‘ra, kredit oluvchi kredit mablag‘larini belgilangan muddatda qaytarishi va foizlarni to‘lashi shart. Mazkur majburiyatlarning buzilishi iqtisodiy sudlarda ko‘plab nizolarni yuzaga keltiradi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish va kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Korxonalar bankrotligiga oid 6 920 ta ish “Korxonalarining bankrotligi to‘g‘risida”gi qonun amaliyotda faol qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur institut iqtisodiyotda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bankrotlik mexanizmi iqtisodiy jihatdan samarasiz faoliyat yuritayotgan korxonalarini qayta tiklash yoki tugatish orqali bozor iqtisodiyotining barqarorligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, bankrotlikka oid ishlarning ko‘payishi ayrim

korxonalarda moliyaviy boshqaruv va ichki nazorat tizimi sust ekanini ham ko'rsatadi. Moliyaviy jarima qo'llashga oid 4 738 ta ish davlat nazorati organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning muhim qismi hisoblanadi. Bu yerda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Soliq kodeksi va boshqa moliyaviy nazoratga oid qonunchilik normalari muhim o'rin tutadi. Ayrim hollarda tadbirkorlik subyektlari noqonuniy moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan deb hisoblab, iqtisodiy sudlarga murojaat qiladi. Sudlar esa ushbu nizolarni ko'rib chiqishda qonuniylik va adolatlilik prinsiplariga asoslanadi.

Yerga oid nizolar sonining 1 280 tani tashkil etishi Yer kodeksi hamda yer munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik normalarining iqtisodiy sud amaliyotida muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Yer uchastkalarini ajratish, foydalanish yoki ijara munosabatlari bilan bog'liq nizolar bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, mazkur statistik ma'lumotlar iqtisodiy sudlar davlatda qonun ustuvorligini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim institutsional mexanizm ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy nizolar sonining yuqoriligi tadbirkorlik subyektlarining huquqiy savodxonligini oshirish, mediatsiya va sudgacha nizolarni hal qilish institutlarini rivojlantirish hamda shartnomaviy intizomni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

2025-yilning 1-yanvaridan 30-iyuniga qadar iqtisodiy sudlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari ishtirokida ko'rilgan ishlar statistikasi Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiy nizolar hajmi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Mazkur davrda Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subyekti da'vogar bo'lgan jami 840 ta ish ko'rib chiqilgan bo'lib, shundan 603 tasi qanoatlantirilgan. Bu ko'rsatkich tadbirkorlarning o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudlarga faol murojaat qilayotganini hamda sudlar tomonidan ularning talablariga asosli yondashilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, 187 ta ish rad qilingan, 26 ta ish ko'rmasdan qoldirilgan va 24 ta ish yuritish tugatilgan. Mazkur holatlar ayrim

tadbirkorlar tomonidan huquqiy asoslarning yetarlicha mustahkam tayyorlanmasligi, dalillar bazasining to'liq shakllantirilmashligi yoki protsessual talablarning buzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarda Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subyekti javobgar bo'lgan ishlar soni ancha yuqoriligi kuzatiladi. Xususan, jami 21 272 ta ishda tadbirkorlik subyektlari javobgar sifatida ishtirok etgan bo'lib, bu boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan juda katta hajmni tashkil etadi. Ushbu ishlarning 20 155 tasi qanoatlantirilgani sudlarga murojaat qilgan da'vogarlarining talablari ko'p hollarda asosli bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik, to'lov intizomiga rioya qilmaslik, qarzdorliklarning ortishi yoki xo'jalik faoliyatida qonunchilik talablariga to'liq amal qilinmasligi kabi muammolar mavjudligini anglatadi. Bundan tashqari, 231 ta ish rad etilgani tadbirkorlik subyektlari ayrim holatlarda o'z pozitsiyasini sudda muvaffaqiyatli himoya qila olganini ko'rsatadi. to'liq emasligi yoki taraflarning sud jarayonida faol ishtirok etmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 45 ta ish yuritish tugatilgani esa taraflar o'rtasida kelishuvga erishilganligi yoki nizoni suddan tashqari tartibda hal qilish imkoniyatlari mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Mazkur statistik tahlil Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida huquqiy madaniyat, shartnomaviy intizom va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlariga malakali yuridik yordam ko'rsatish, shartnomaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy sudlar esa ushbu jarayonda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qiluvchi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy huquqiy institutlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muammo va takliflar

Bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tadbirkorlarning davlat boshqaruvi organlari bilan yuzaga keladigan nizolarida malakali yuridik yordamdan foydalanish imkoniyati yetarli darajada shakllanmagani amaliyotda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat tadbirkorlik faoliyatining barqarorligiga, investitsion muhitga hamda iqtisodiy adolat tamoyillarining ta‘minlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Birinchi muammo sifatida kichik tadbirkorlik subyektlarining advokat xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklanganligini ko‘rsatish mumkin. Amaliyotda ko‘plab tadbirkorlarning doimiy yurist shtabi mavjud emas, malakali advokat xizmatlari esa ayrim hollarda yuqori xarajat talab qiladi. Natijada tadbirkor davlat organlari bilan nizolarda o‘z huquqlarini to‘liq himoya qila olmaydi. Ayniqsa, soliq, litsenziya, yer ajratish, tekshiruv va ma‘muriy jarimalar bilan bog‘liq nizolarda tadbirkorning huquqiy savodxonligi yetishmasligi uning manfaatlariga zarar yetkazadi. Mazkur muammo huquqiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”¹⁰gi Qonunda tadbirkorlarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishi belgilangan. Biroq amaliy mexanizmlarning yetarli emasligi ushbu normalarning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli tadbirkorlarning sud va ma‘muriy organlardagi manfaatlarini himoya qilishda institutsional yondashuvni kuchaytirish zarur.

Ikkinchi muammo sifatida tadbirkorlar o‘rtasida huquqiy bilim va profilaktik tushuntirish ishlarining yetarli emasligini ko‘rsatish mumkin. Ko‘plab tadbirkorlar amaldagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar, soliqqa oid majburiyatlar, shartnomaviy munosabatlar yoki mehnat qonunchiligi bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Bu esa keyinchalik huquqbuzarliklar, iqtisodiy nizolar hamda ortiqcha sud jarayonlariga

¹⁰ “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun <https://lex.uz/docs/-31846>

sabab bo‘lmoqda. Huquqiy savodxonlikning pastligi tadbirkorning nafaqat iqtisodiy faoliyatiga, balki uning davlat organlariga bo‘lgan ishonchiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammoning yechimi sifatida “Har oyda bir marotaba huquqiy targ‘ibot aksiyasi” tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu tizim orqali tadbirkorlarga bepul huquqiy maslahatlar berish, yangi qonunchilik mazmunini tushuntirish, shartnomalar tuzish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish hamda nizolarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bunday yondashuv tadbirkorlar va davlat organlari o‘rtasida ochiq muloqotni shakllantirib, iqtisodiy munosabatlarda qonuniylik va shaffoflikni mustahkamlaydi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun Adliya vazirligi tashabbusi asosida maxsus “advokat yordami tizimi”ni joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimga ko‘ra, tadbirkor elektron platforma orqali murojaat qiladi, murojaat vakolatli organ tomonidan o‘rganilib, unga tegishli malakali advokat biriktiriladi. Advokat esa nizoni sudgacha hal qilish, huquqiy hujjatlarni tayyorlash va sudda manfaatlarni himoya qilish vazifalarini amalga oshiradi. Bu tizim, bir tomondan, tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Xorijiy tajriba ham mazkur tizimning samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan, ayrim davlatlarda kichik biznes subyektlariga davlat tomonidan subsidiyalangan yuridik yordam mexanizmlari mavjud bo‘lib, bu tadbirkorlik muhitining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda ham bunday tizimni bosqichma-bosqich joriy etish tadbirkorlarning sudga bo‘lgan ishonchini oshiradi, iqtisodiy nizolar sonini kamaytiradi va investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi.

Xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari huquqlarini ishonchli himoya qilish iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari

Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi hamda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun orqali mustahkamlangan bo‘lib, sud-huquq tizimidagi islohotlar tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy sudlarning investitsiyaviy, korporativ, bankrotlik va shartnomaviy nizolarni ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus vakolatlari tadbirkorlik faoliyatida qonuniylik va huquqiy ishonch muhitini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Surxondaryo viloyati iqtisodiy sudlari faoliyati bo‘yicha statistik ma‘lumotlar tahlili hududda iqtisodiy nizolar soni ortib borayotganini, ayniqsa bank operatsiyalari, shartnomaviy majburiyatlar, kredit va yer munosabatlari bilan bog‘liq nizolar ustuvor ekanini ko‘rsatdi. Mazkur holat tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy intizom, moliyaviy barqarorlik va huquqiy savodxonlikni yanada mustahkamlash zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, ishlarning asosiy qismi qisqa muddatlarda ko‘rib chiqilayotgani iqtisodiy sudlar faoliyatida samaradorlik va tezkorlik tamoyillari amalda ta‘minlanayotganidan dalolat beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining malakali yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi ularning davlat organlari bilan nizolarda manfaatlarini to‘liq himoya qilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, tadbirkorlar uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan “advokat yordami tizimi”ni joriy etish, bepul huquqiy maslahat va targ‘ibot mexanizmlarini kengaytirish, mediatsiya institutini rivojlantirish hamda sudgacha nizolarni hal etish amaliyotini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur choralar tadbirkorlarning sudga bo‘lgan ishonchini oshirish, iqtisodiy nizolar sonini kamaytirish hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir
<https://president.uz/oz/lists/view/6561>
2. Iqtisodiy sudlarda qanday ishlar ko'riladi?
<https://namangan.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=47984>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/ru/docs/-3523891?otherlang=1>
4. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi <https://lex.uz/docs/-7338189>
5. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida Ozbekiston Respublikasi Prezidenti 21-sonli farmoni
<https://lex.uz/docs/-8050769>
6. Iqtisodiy sudlar tomonidan birinchi instantsiyada ko'rilgan ishlar yuzasidan statistik ma'lumot <https://stat.sud.uz/assets/uploads/economical/pdf/eco-2025-6.pdf>
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun <https://lex.uz/docs/-31846>
9. SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI STRATEGIK ISLOHOTLAR INSON MANFAATLARI UCHUN XIZMAT QILMOQDA <https://strategy.uz/uz>
10. "O'ZBEKISTON—2030" STRATEGIYASI https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy